



## Kutubxona turlari

Shovqiyeva Shohida Bobosher qizi

O'zbekiston Davlat San'at va Madaniyat Instituti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6616703>

### ARTICLE INFO

Received: 28<sup>th</sup> May 2022

Accepted: 02<sup>nd</sup> June 2022

Online: 05<sup>th</sup> June 2022

### KEY WORDS

kutubxona, xizmat  
ko'rsatish tizimi, universal  
kutubxonalar, electron  
kutubxonalar, ilmiy  
kutubxona va h.k

### ABSTRACT

*Ushbu maqola kutubxona tizimi, uning tarixi, yurtimizdagi kutubxonalar, kutubxona turlari, ularning bir biridan farqlari, yurtimizda kutubolib borilayotgan yangiliklar, muammolar va ularning yechimlariga bag'ishlanachilikda angan.*

Kutubxona — bosma va ayrim qo'lyozma asarlardan ommaviy foydalanishni ta'minlovchi madaniy-ma'rifiy va ilmiy muassasa; muntazam ravishda bosma asarlar to'plash, saqlash, targ'ib qilish va kitobxonlarga yetkazish, shuningdek, axborot-bibliografiya ishlari bilan shug'ullanadi, ommaning madaniy saviyasini oshirishda faollik ko'rsatadi. Kitobxonlarga xizmat ko'rsatish K.ning asosiy faoliyati bo'lib, qolgan barcha faoliyatlar (kitob fondini butlash va uni tashkil etish, fond mazmunini yoritish, uni kitobxonlarga yetkazish qabilar) asosiy faoliyat uchun xizmat kiladi. Kitobxonlarga xizmat ko'rsatishning asosiy maqsadi ularni axborot va adabiyotga bo'lgan talablarini imkon boricha to'liq qondirish va adabiyot tanlashlariga yordam berishdan iborat. Har bir K. o'z turiga ko'ra kitobxonlarni tabaqalarga bo'lib, alohida kitobxonlar guruhlariga ajratgan holda xizmat ko'rsatishni tashkil qiladi.

Adabiyotlar targ'ibotining barcha shakl va usullari kitobxonlar talabini imkon qadar to'liq va tezkorlik bilan qondirishga qaratiladi.

Yozuvning paydo bo'lishi va hujjatli manbalarni, ayniqsa, qo'lyozma va keyinchalik bosma kitoblarning ko'payishi K.larning yuzaga kelishi va rivojlanishiga sharoit yaratdi. K.lar yozma yodgorliklarni saqlovchi xazina sifatida juda qadimda paydo bo'lgan. Miloddan avvalgi 2-ming y.likda sopol bitiklari saqlangan K.lar bo'lgan. Miloddan avvalgi 7-asr o'rtalarida Sharqdagi ko'p saroylarda, Qad. Misr va Rim ibodatxonalarida qoshida K.lar bo'lgan. Qad. davrdagi K.lardan eng mashhuri Aleksandriya (Iskandariya) kushubxonasidir. G'arb. Yevropada ilk o'rta asrlarda movastr va ibodatxonalar qoshida K.lar tashkil etilgan. Kitob bosishning ixtiro qilinishi K.lar rivojlanishida yangi davrni boshlab berdi. Sarbonva, Geydelberg universitetlari qoshida, shuningdek,



Vatikan K., Parijdagi Kirollik K. kabi K.lar paydo bo'la boshladi. O'zbekiston hududida miloddan avvalgi 1-ming yillikning so'nggi asrlarida dastlabki K.lar paydo bo'lgan. Dastlabki K.lar hukmdorlar saroylarida va ibodatxonalarda tashkil etila boshlangan. Turon xalqlari Misr, Eron, Yunon va ularga qo'shni bo'lgan xalqlar bilan yaqin aloqalar o'rnatgan, o'sha davrlardagi mavjud qo'lyozmalar bilan ham tanish bo'lgan. O'zbekiston xalqlarining qad. yozma yodgorliklari saqlanmagan. Beruniyning xabar berishicha, kitob xazinalari va ularni saqlovchilar turli istilolar davri (7—9-asrlar)da yo'q qilib yuborilgan. 9—10-asrlarda O'rta Osiyoda fan va madaniyat rivojlandi. Buxoro, Samarqand, Marv, Urganch va boshqa yirik shaharlar hukmdorlari saroylarida K.lar barpo etildi. Ayniqsa, Buxoroda ko'p K.lar mavjud bo'lganligi haqida ma'lumotlar bor. Ulardan eng mashhuri, eng boy va yirigi Somoniylar sulolaviy K.si edi. Madrasa va masjidlar qoshida ham K.lar bo'lgan. Mo'g'ullar istilosi arafasida Marv shahrida 10 ta yirik K. bo'lganligi haqida ma'lumotlar bor. 13-asrda Samarqand, Buxoro, Farg'ona, Balx va boshqa shaharlar madaniyat markazlari, olimlar to'planadigan joy bo'lib, ularda yirik kutubxonalar mavjud edi.

14-asrning 2-yarmidan O'rta Osiyoda madaniy hayotning yangidan yuksalishi kutubxonalarning qayta tiklanishida ham namoyon bo'ddi. 14-asr oxirida Shayx Muhammad Porso umum uchun ochgan maskan vaqf kutubxonasi tarzida 19-asr 40-yillarigacha faoliyat ko'rsatgan. Buxoro, Samarqand, Qarshi, Xiva va boshqa shaharlardagi katta madrasalarda kutubxonalar bo'lgan, ularning fondlari madrasaning qad. va nufu'ziga qarab turlicha bo'lgan. Ba'zi tarixiy manbalarda

qayd etilishicha, Beruniy, Ibn Sino, Firdavsiy, Zamaxshariy, Umar Xayyom qabilarning shaxsiy kutubxonalari, Alisher Navoiyning qimmatbaho qo'lyozmalarga boy yirik kutubxonasi, Abdurahmon Jomiyning shaxsiy kutubxonasi mashhur bo'lgan.

O'zbekiston Respublikasida kutubxonaning ommaviy, ilmiy va maxsus turlari bor. Ommaviy K.lar adabiyotlarni saralash va keng kitobxonlar ommasiga yetkazish, faoliyatida turli kitobxonlar guruhlariga mo'ljallangan kitoblarni targ'ib qilish va o'qishni boshqarishda faol va ta'sirchan usullarni qo'llaydi. Bu guruhga O'zbekiston Madaniyat ishlari vazirligi tizimidagi shahar va qishloq kutubxonalari, kasaba uyushmalarining korxonalaridagi kutubxonalari, klublar, madaniyat uylaridagi kutubxonalar kiradi.

Ilmiy va maxsus kutubxonalar fan, iqtisodiyot va madaniyatning turli tarmoqlaridagi olimlar va mutaxassislariga xizmat ko'rsatadi, shuningdek, oliy va maxsus o'quv yurtlari talabalarining ehtiyojlarini qondiradi. Ilmiy kutubxonalarga yirik davlat, akademiya, universitet va tarmoqlar K.lari; maxsus K.larga texnika K.lari, muassasalar, ilmiy tadqiqot institutlari, oliy o'quv yurtlari va h.k.dagi K.lar kiradi. Saqlanayotgan adabiyotlar tarkibiga qarab K.ni universal, ko'p sohali va soha K.lariga ajratish mumkin. K.lar o'z navbatida, faoliyati, mintakaviy darajasiga, mansubligiga qarab yana turlarga bo'linadi (milliy K., davlat K.si, viloyat K.si, o'smirlar K.si, qishloq xo'jaligi K.si va boshqalar). Fantexnika taraqqiyoti sharoitida alohida K.kitobxonlarning talablarini qondirishga qodir emas. Shuning uchun K.larni birgalikda faoliyat ko'rsatish jarayoni



ko'zatilmoqda. Bu K. tarmoqlarini markazlashtirishda namoyon bo'lmoqda.

Har qanday kutubxonaning asosiy vazifasi kitob fondini jamlash, joylashtirish hamda kitobxonlarga xizmat qilishdan iborat. Kitob fondini jamlash uchun ushbu K.ga kerakli nashrlar muntazam kuzatib boriladi, aniqlanadi va ularni K.ga olish kutubxona kol-lektori orqali amalga oshiriladi. Bundan tashqari, yirik K.lar bosma nashrlarning to'liq yoki qisman nazorat nusxasini olish xuquqiga ega, shuningdek, ular uchun mamlakat ichida va chet mamlakatlardan kitoblar sotib olish imkoni yaratiladi. Kitobxonlarga xizmat ko'rsatish darajasi K. fondini to'liq to'plashga birmuncha bog'liq.

Kitob fondini to'g'ri tashkil qilish (hisobga olish, joylashtirish, saqlash va kitobxonga yetkazish) kitobxonga adabiyotdan foydalanishni, kutubxona-chiga esa kitobxonga tez xizmat ko'rsa-tishni, fondni ijtimoiy mulk sifa-tida saqlashni ta'minlaydi.

Kitobxonga xizmat ko'rsatishning turli yo'llari mavjud: kitobxonga abonement, qiroatxona hamda ko'chma K. orqali kitob berish; ayrim kitobxon va korxonalariga kitob tanlashda yordam berish; kutubxona katalogi tizimi orqali kitob fondini yoritish; turli xil axborot-bibliografiya qo'llanmalari tuzish va h.k.

Zamonaviy texnika kutubxonachini qo'l mehnatidan ozod etib, uni asosiy vazifasi — kitobxonlar bilan madaniy tarbiyaviy ishlar olib borishga ko'proq vaqt ajratishga imkon yaratmokda. Dunyodagi eng yirik K.lar: AQShning Kongress K.si (Vashington), Britaniya K.si (London); Fransiya, Avstriya, Shvetsiya, Yaponiya va boshqa mamlakatlarning milliy K.lari, Rossiyadagi Rossi davlat K.si (Moskva), Rossiya milliy K.si (Sankt-Peterburg) va

boshqa, O'zbekistonda O'zbekiston milliy kutubxonasi, O'zbekiston Fanlar akademiyasining Asosiy kutubxonasi, O'zbekiston milliy universitetining Asosiy kutubxonasi, "Turon" kutubxonasi va boshqalar.

Kutubxona katalogi - bir yoki bir necha kutubxona fondida mavjud kitoblar, hujjatlarning tarkibi va mazmunini ochib beruvchi bibliografik yozuvlar ro'yxati. Kutubxona katalogi kartochkali yoki kompyuter yozuvlari shaklida bo'lishi va elektron disklar yoki kitob holda ko'paytirilib sakdanishi mumkin. Kutubxona katalogi kutubxona fondini to'la yoritish, kitobxonlarning osonlik bilan kitob tanlashlariga yordam berish, kitobxonlarga turli bilimlarni singdirish hamda ularni ma'naviy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Bosma asarlarning turlari, mavzuning rang-barangligi hamda kitobxonlar talablaridagi xilma-xilliklar Kutubxona katalogining murakkab tizimini yaratishni taqozo etadi. Kutubxona katalogi tuzishning nazariy va uslubiy asoslarini ishlab chiqarish kutubxonashunoslikning asosiy vazifalaridan biridir. Kutubxona katalogi vazifasiga ko'ra, kitobxonlar (ma'lumot-tavsiya beruvchi) va kutubxonachilarga mo'ljallangan yordamchi kataloglarga bo'linadi (yordamchi kataloglar eskirgan, juda kam talab etiladigan asarlarni ham o'z ichiga oladi). Materiallarni guruhlashda Kutubxona katalogi alfavitam, sistemali, predmetli va boshqalarga bo'linadi.

Alfavitli Kutubxona katalogi barcha kutubxonalarning majburiy kataloglaridan biri, unda asarlar muallifining nomi, nasabi, asarlarning sarlavhalari alfavit tartibida beriladi. Sistemali Kutubxona katalogi asarlar mazmuniga asoslanib fan



tarmoqlari bo'yicha guruhlanadi: unda kitoblar mantiqiy bo'linish tartibida (umumiydan xususiyga qarab) — ilmiy fanlar, bo'limlar, bo'linmalar va h.k. bo'yicha joylashtiriladi. Sistemali Kutubxona katalogi kitob mazmunini ochib berish bilan birga, uning tarmoq bo'linishlarini ham hisobga oladi va ko'pgina fanlarni bir tarmoq nuqtai nazaridan bir joyga to'plash imkoniyatini yaratadi. Bu katalog maxsus ishlangan tayyor jadval ("Kutubxona-bibliografiya klassifikatsiyasi jadvali") asosida tashkil qilinadi. Predmetli Kutubxona katalogida asarlarda bayon qilingan voqea-hodisalar, tushunchalar sohalar bo'yicha emas, balki alfavit tartibida joylashtiriladi, materiallarni alohida guruhlanishi bilan sistemali Kutubxona katalogidan farq qiladi; uning afzalligi bo'limlarni alfavit tartibida joylashtirilishi tufayli dolzarb muammolarni tezda yoritish va ulardan foydalanishga imkon tug'diradi hamda ma'lumotnomali axborot berish vazifasini bajaradi.

Har bir kutubxonada alfavitli va sistemali Kutubxona katalogi, shuningdek, gazeta-jurnal maqolalari kartotekasi bo'lishi lozim. Predmetli Kutubxona katalogi ilmiy va maxsus kutubxonalarda qo'llaniladi. Respublika, o'lka, viloyat kutubxonalarida adabiyotlar va shu joylar bilan bog'liq materiallar bo'yicha Kutubxona katalogi tuziladi, bunday kataloglar o'lkashunoslik katalogi, mahalliy matbuot katalogi deyiladi. Kutubxonalarning axborot berish vazifalari va kutubxonalararo abonementlarning ko'payishi bilan bir necha mustaqil kutubxona fondlarini ifodalaydigan qo'shimcha Kutubxona katalogi (ko'pincha hududiy yoki fan tarmoqlariga ko'ra) tuziladi.

Oblast davlat universal ilmiy kutubxonalari (bundan keyin qisqacha oblast kutubxonasini OK deb ataymiz) OK tashkil qilingan dastlabki yillardayoq bu kutubxonalarning masdaniy-tarbiyaviy faoliyat ularning adabiyotga bo'lgan kasbiy talablarni qondirish vazifasi bilan qo'shib olib borilmoqda. 30-yillardan boshlab rasmiy xujjatlarda, 1965 va 1983 yillardagi namunaviy ustavlarda OK doimo universal ilmiy kutubxona deb hisoblanadi.

OKning turkumiy xususiyatlariga ta'rif bergan vaqtda ular tarixiy taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlarini xisobga olish lozim. Birinchidan, 60-yillarning o'rtalariga qadar OK ma'lum darajada ommaviy kutubxonalar vazifasini bajardi, bu esa, ilmiy va maxsus adabiyotdan yetarli foydalanmaslikga olib keldi. Ikkinchidan ko'p yillar mobaynida bu kutubxonalardagi ilmiy adabiyotlarning universal fonda mavjud regiondagi deyarli yagona muasasa bo'lib qolganligi oqibatida ayrim OK o'z faoliyatining vazifa va mavzu chegaralari to'g'risida aniq tasavurga ega emasdilar hamda 60- va 70-yillarda vujudga kelgan maxsus kutubxonalarning imkoniyatlarini xisobga olmay, barcha axborot talablarini o'z kuchlari bilan qondirishga harakart qildilar.

Ilmiy-texnika axboroti umumdavlat sistemasi hamda madaniyat va san'at bo'yicha axborot xududiy organlarining yo'qligi oblast kutubxonalarida xududiy ilmiy-texnika axboroti markazlarini tashkil qilishni taqazo etdi. Xozirgi vaqtda OKning asosiy ko'pchiligida shunday bo'linmalar ishlab turibdi. Ma'lumotnoma axborot fondlari vujudga keltirilmoqda, axborot abonentlari doirasida belgilanmoqda, muasasalarda hamda madaniyat va san'at muxlislariga axborot xizmati ko'rsatish shakllari tarkib topmoqda.



## References:

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinf o'quvchilari uchun darslik/B. Boltayev, M. Mahkamov, A. Azamatov, S. Rahmonqulova. – T.: «O'zbekiston» NMIU, 2017. y
2. Yuldashev U.Yu., Boqiev R.R., Zokirova F.M. Informatika o'qitish metodikasi. Toshkent, "Talqin", 2005 y.
3. Isoqov I., Qulmamatov S.I. Informatikani o'qitishda innovatsion texnologiyalar fanidan amaliy mashg'ulotlar ishlanmalari. Guliston, GulDU, 2013 y.  
O'quv-metodik qo'llanma. T., 2012 y., 120 b.6.
4. Isoqov I., Abdurahimov D., Toshtemirov D.E. Informatika fanidan o'quv-uslubiy majmua. Guliston, GulDU, 2013 y., 337 b.
6. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A.A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). Toshkent 2008 y., 181 b.
7. Saidaxmedov N.S. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar. T., 2003y.
8. Saidaxmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar T., "Moliya", 2003y., 172 b.